



*№7 Ma`ruza*

# ***SUVNING IFLOSLANISH TURLARI. LITOSFERA, UNING TUZILISHI VA CHEGARALARI. TUPROQ QATLAMI***

## **REJA**

- 1. Suv haqida ma`lumot**
- 2. Suvning ifloslanishi va ifloslanish turlari**
- 3. Litosfera haqida ma`lumot**
- 4. Litosferaning tuzilishi va chegaralari**
- 5. Tuproqning fizik va kimyoviy xossalari**
- 6. Tuproq qatlami va ahamiyati haqida tushuncha**

*Lektor: T.f.d., Ekologiya va hayot xavfsizligi xalqaro  
fanlar akademiyasi a`zosi Jumayeva D.J.*

# *Ekologik aforizmlar*



*«Mintaqaning yana bir muammosi suvni muhofaza qilish va tejash tadbirlari majmuini amaiga oshirish zaruriyati bilan bog‘liqdir. Bu tadbirlar suvning isrof bo‘lishini eng kam darajaga keltirishni o‘z ichiga oladi»*

*I.A.Karimov*


# *Suv haqida ma`lumot*



Yer yuzidagi barcha mavjud suvlar gidrosferani tashkil etadi. Gidrosfera deganda okean, ko'l, daryo, er osti suvlari va muzkilarni o'z ichiga olgan Yerning suv qobig'i tushuniladi. Sayyoramizda hayot dastlab suv muhitida paydo bo'lgan va tirik organizmlar uchun suvning ahamiyati beqiyosdir. Yer yuzida suv suyuq, qattiq va gazsimon holatda mavjud bo'lib, modda va energiya aylanma harakatida katta rol o'ynaydi. Ayniqsa atmosferadagi suv bug'lari va tuproq namligining ahamiyati katta. Suv tugamaydigan resurslarga kiradi va aylanma harakat natijasida suv resurslari doim tiklanib turadi. Yer kurrasida suv qatlami sayyoramizda termik rejimni tartibga solib turadi. Okean va dengizlardagi suvlar quyoshdan kelayotgan issiqlikni to'plab, qishda uning atrofini juda ham sovib ketishdan saqlab turadi.

# *Suv haqida ma`lumot*

Suv Yer yuzasida hayot mavjudligining asosiy shartlaridan biridir. Lekin, hozirgi kunda, tabiatdagi barcha suvlardan bevosita foydalanib bo'lmaydi. Shu bilan birga "*suv resurslari*" tushunchasini barcha suvlarning sinonimi deb tushunmaslik kerak. Haqiqatan ham bu kategoria faqatgina tabiatga xos bo'lmay, balki ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy bosqichlarda o'zgarib turadi. Hozirgi taraqqiyot bosqichida suv resurslari tabiatdagi barcha chuchuk va o'rtacha minerallasgan, tabiiy holda yoki sun'iy ravishda chuchuklashtirilgan, tozalangan suvlardan iborat bo'lib, ayni paytda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlatilayotgan va ishlatilishi mumkin bo'lgan suv manbalari yig'indisidir. Hajmi, miqdori, hosil bo'lish va joylashish o'rniga bog'liq holda suv manbalari mahalliy, regional va global suv resurslariga bo'linadi. Xalqaro bitimlarga asosan esa milliy, davlatlararo va umumiy (umuminsoniy) suv resurslari bir-biridan farqlanadi.



# *Suv haqida ma`lumot*

Suv resurslarining asosiy manbalari daryolar, soylar, buloqlar, suv omborlari, ko'llardagi tabiiy toza suvlardan hamda yer ostida joylashgan chuchuk va o'rtacha minerallashtirilgan suvlardan iborat. Bularga qo'shimcha ravishda muz osti va muz ko'llari suvlarini, termal (issiq) yer osti suvlarini, tozalangan (ikkilamchi) suvlarni, oqava suvlarining bir qismini, atmosfera yog'inlarini va tuproqdagi namlikni kiritish mumkin.



Viloyatimizning yuqori zonasidagi mavjud er osti suvi xalqimiz uchun katta omaddir, chunki banday toza ichimlik suvi hamma joyda ham topilmaydi. Viloyatning pastki zonasida joylashgan er osti suvining ko'p qismi sho'rlanib, iste'mol qilishga yaroqsiz holga kelib qolgan. Yuqori zonadagi sifatli er osti suvi bugungi kunda minglab quduqlar orqali surilib olinayapti. Ushbu quduqlardan chiqqan suvning bir qismi sug'orish ishlariga sarflanayotgan bo'lsa, qolgan qismini Muborak gazni kayta ishlash zavodi va Sho'rtan gaz konlari ishlatmoqdalar.

# *Suvning ifloslanishi va ifloslanish turlari*

Suvni muhofaza qilishning asosiy shartlaridan biri, uni tejab sarflashdir. Suvni tejashda borgan sari ko'payib borayotgan oqova suvlarini yig'ib, uni tozalash va qayta ishlatish katta ahamiyatga egadir. Ko'p joylarda sug'orish sistemasi (kanal, lotok, ariqlar) nosozligidan suvning bir qismi erga shimilib yoki havoga bug'lanib isrof bo'lib ketayapti, ba'zi xo'jaliklarda, ayniqsa, Qarshi kanali atrofida suvdan rejasiz foydalanish, ko'llatib sug'orish, keraksiz joylarga oqizib qo'yish hollari uchrab turadi. Ko'p xo'jaliklarda suv optimal miqdoridan ikki barobar ko'p sarflanayotganligi ma'lum. G'uzani me'yoridan ko'p sug'orish uni g'ovlab ketishiga, tuproq sovushi va zichlanishiga, undagi foydali mikroorganizmlar faoliyatini susayishiga olib keladi.

Ayrim tashkilotlarda suv tozalash inshootlarning talabga javob bermasligi sababli oqova suvlar to'g'ridan-to'g'ri ochiq suv havzalariga va relefga tashlanmoqda. Natijada bu oqova suvlar nafaqat ochiq suv havzalarini, balki er osti suvlarini ham ifloslantirmoqda. Oqova suvlarni tozalash asosan 4 xil yo'l bilan olib boriladi.

**Yer osti  
suvlaridan  
foydalanish**

**Muzlik  
suvlaridan  
foydalanish**

**Okean va  
dengiz  
suvlaridan  
foydalanish.**

**Yomg'ir  
suvlaridan  
foydalanish**

# Suvning ifloslanishi va ifloslanish turlari

1. Mexanik usulda, suvda erimaydigan jismlar panjarada ushlab qolinadi.
2. Fizik (elektroliz) usulida, suv tarkibidagi og'ir metall ionlari anionlar va kationlardan tozalanadi.
3. Kimyoviy usul, suvni xlorlash va ozonlash yo'li bilan bo'ladi.
4. Biologik usulda, suv o'tlari (xlorella) yordamida tozalanadi. Yoki nishablikda 2 ta hovuz quriladi va biridan ikkinchisiga suv oqib tushayotgan paytda, 80 sm gacha bo'lgan qum, tuproq suv tarkibidagi mayda mikroba va bakteriyalarni ushlab qoladi.

**Suv havzalari quyidagicha ifloslanadi:** suvda har xil zararli moddalar to'planib suvning fizik xossalari va kimyoviy tarkibi o'zgaradi. Organik va mineral qo'shilmalar miqdori ortadi. Zaharli birikmalar paydo bo'ladi. Suv tarkibida kislorod kamayadi. Bakteriyaning turlari va miqdori o'zgaradi va yuqumli kasalliklar tarqatuvchi bakteriyalar paydo bo'ladi.



# *Suvning ifloslanishi va ifloslanish turlari*

Suv yana sanoat va kommunal xo'jaliklardan chiqqan oqava suvlar, neft, radioaktiv moddalar va boshqalar bilan ifloslanadi. Rivojlangan davlatlarning sanoatida ishlatiladigan toza suvlar kommunal maishiy xo'jaliklarga sarflanadigan suvlardan bir necha barobar ko'pdir. Chiqindi suvlar insonni ichimlik suv bilan ta'minlashda yaroqsiz hisoblanadi. Chunki zaharli moddalar bilan to'yingan suv inson salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Turli yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Keyingi vaqtda shifokorlar poliomielit, sariq va sil kasalliklar mikroblarining suv orqali tarqalishini aniqladilar. Kimyo sanoatida sintetik yo'l bilan ishlab chiqariladigan bo'yoq, portlovchi modda va turli xil dori- darmon, kauchuk, sun'iy tola va boshqalar toza suvni ko'p miqdorda talab qiladi. Oqibatda bunday ishlab chiqarish manbalaridan chiqqan iflos suvlar tarkibida tabiatda uchramaydigan zararli moddalar ham uchraydi.




# *Litosfera haqida ma`lumot*

Yer yuzasining 2-3 km qismi litobiosfera deyiladi. U litosferaning hayot mavjud qatlami hisoblanadi. Litosfera sathidan insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari (inshootlar qurishda foydalanishdan tashqari) va qazilma boyliklar qazib olishda foydalaniladi. Ochiq usulda qaziladigan konlarning chuqurligi 800 metrga, yopiq usulda qaziladigan konlarning chuqurligi esa 3-4 km ga etadi.



# *Litosfera haqida ma'lumot*

**Litosfera** — yunonchada „tosh o‘ram“ ma’nosini anglatadi. Yerning qattiq holatdagi tosh o‘ramining qalinligi okean tubida 5-7 km, quruqlikda 30-40 km va tog‘li o‘lkalarda 70-80 km gacha boradi, u cho‘kindi, metamorfik va magmatik tog‘ jinslaridan tashkil topgan. Yer sathining tuzilishi, tarixiy taraqqiyoti, unda hayotning rivojlanishi asosan yerning ichki qismida vujudga keladigan tektonik jarayonlarga va iqlimga bog‘likdir. Yerning muz qoplamagan quruqlik satxi 133,4 mln km bo‘lib, uning 55,7 mln km<sup>2</sup> tropik, 24,3 mln km<sup>2</sup> subtropik, 22,5 mln km<sup>2</sup> mu’tadil, 21,2 mln km<sup>2</sup> qutb mintaqalariga to‘g‘ri keladi.



# Tuproqning fizik va kimyoviy xossalari


Tuproqning fizik xossalardan eng asosiylari, bu tuproqning solishtirma og'irligidir. Tuproqning solishtirma og'irligi deb ma'lum hajmdagi tuproq qattiq qismi og'irligini shunday hajmdagi tuproq qattiq qismi og'irligining shunday hajmdagi  $Q_4^0 S$  darajadagi, suv og'irligiga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Qattiq fazasining zichligi tuproq tarkibidagi organik moddalar miqdoriga va mineral qismi komponentlarining nisbatiga bog'liq. Tuproq qattiq fazasidagi organik moddalarning qattiq fazasi zichligi 0,2-0,5 dan 1,0-1,4 gqsm<sup>3</sup> gacha, mineral birikmalardan iborat qismida esa 2,1-2,5 dan 4,0-5,18 gqsm<sup>3</sup> gacha uzgaradi. Bu ko'rsatkich tuproqdagi birlamchi va ikkilamchi minerallarning tarkibi va solishtirma massasiga bog'liq. Masalan, dolomitning solishtirma og'irligi 2,8-2,99, limonitniki 3,5-4,0 gematitniki 4,9-5,3, montmorillonitniki 2,0-2,2 gqsm<sup>3</sup> ni tashkil etadi.



# Tuproqning fizik va kimyoviy xossalari

Tuproq tarkibida turli mikroelementlar, mikroorganizmlar, gel'mintlar, chirindilar va boshqa moddalar mavjud. Tuproq o'z navbatida qator gidrogeologik vazifalarni ham bajaradi. Bulardan biri va asosiysi uning g'ovaklik xususiyatidir. Ma'lumotlarga qaraganda, insonning hayotiy faoliyati natijasida tuproq o'zining normal tabiiy holatini yo'qotib bormoqda. Chunki tuproq nihoyatda ko'p, turli kimyoviy moddalar bilan ifloslanayapti. Tuproq sanoat chiqindilari, ko'p miqdorda zaharli kimyoviy moddalar, mineral o'g'itlar, kislota va ishqorlar, polimer moddalar bilan ifloslanib bormoqda.

Tuproqning fizik xossalari eng asosiylari, bu tuproqning solishtirma og'irligidir. Tuproqning solishtirma og'irligi deb ma'lum hajmdagi tuproq qattiq qismi og'irligini shunday hajmdagi tuproq qattiq qismi og'irligining shunday hajmdagi  $Q_4^0 S$  darajadagi, suv og'irligiga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Qattiq fazasining zichligi tuproq tarkibidagi organik moddalar miqdoriga va mineral qismi komponentlarining nisbatiga bog'liq.



# Litosferaning tuzilishi va chegaralari

Hozirgi vaqtda biosferaga yagona ekotizim sifatida qaraladi. U joylashgan o`rniga ko`ra 3 ta tarkibiy qismdan tashkil topgan.

*1.Litosfera* – (gr. “litos” - tosh) Yerning sirtqi po`stlog`i bo`lib, u g`ovak modda ya'ni tuproqdan iborat. Yer mag`zidagi barcha tirik organizmlar ana shu qavatda yashaydi. Tuproq va uning kelib chiqishini birinchi bo`lib rus olimi V.V. Dokuchayev o`rgangan. Uning fikricha tuproq tog` jinslarining quyosh energiyasi, namlik, va tirik organizmlar yordamida nurashidan hosil bo`ladi. Tuproq biosferaning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda yuqori zichlikka (o`rtacha 2,7 g/sm<sup>3</sup>) ega bo`lib, u to`rtta tarkibiy qismdan iborat. Bular – *kattiq zarrachalar*, bu zarrachalar orasidagi *namlik havo* va *mikroorganizmlar*. Tuproqda yashovchi organizmlar *edafobiontlar* yoki *geobiontlar* deb nomlanadi.

Yer po`sti tuzilishiga ko`ra 3 turga bo`linadi: materik, okean, oraliq.

Materik yer po`sti asosan quruqlikda tarqalgan va uchta qismdan iborat:

-cho`kindi qatlam qalinligi 10km dan iborat

-granitli qatlam qalinligi 10-15


-bazalt qatlam qalinligi 15-35

Materik yer po`stining o`rtacha qalinligi 15-35km, tog`li o`lkalarda esa 70-80km o`rtacha zichligi 2.7gg/sm

Okean yer po`sti ikki qatlamdan iborat

-cho`kindi qatlam qalinligi 2-5km

-bazalt qatlam qalinligi 5-10km



# Litosferaning tuzilishi va chegaralari

Tuproq strukturasi deb mazkur tip va uning qatlamiga hos har xil kattalikka, shaklga, suvga chidamlilikka ega bo'lgan agregatlar yigindisiga aytiladi. Agronomlik nuqtai nazardan tuproqning yuqori gorizontlari uvokli va donador struktura ko'proq ahamiyatga ega. Tuproq tugaydigan va tiklanadigan resurslarga kiradi. Tuzilishiga ko'ra tuproqda 3 asosiy qatlam ajratiladi: A-eng ustki gumus (chirindi)li qatlam; B-yuqori qatlamdan mineral va organik birikmalar to'planadigan qatlam. C-tuproq vujudga keladigan ona jins qatlami Insoniyat tarixi davomida 2 mlrd. dan ortiq unumdor tuproqli yerlar yaroqsiz holga keltirilgan. Har yili sayyoramizdagi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar maydoni sho'r bosishi, emirilishi natijasida 5-7 mln.gektarga kamaymoqda.




# *Litosferaning tuzilishi va chegaralari*

**Tuproq** — quruqlikning yuqori qismi boʻlib, oʻsimliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar va iqlim taʼsirida «*ona*» togʻ jinslaridan hosil boʻlgan. U biosferaning boshqa qismlari bilan uzviy bogʻlangan muhim va murakkab tarkibiy qismi. Tuproqda quyidagi **asosiy komponentlar** oʻzaro taʼsirlashadi:


- Mineral zarralar (qum, gil tuproq), suv, havo.
- Detrit — qotib qolgan organik moddalar, oʻsimlik va hayvonlar hayotiy faoliyati qoldiqlari. Detritofaglardan tortib, to detritlarni gumusga aylantiruvchi reduksentlarga boʻlgan tirik organizmlar toʻplami. Tuproq goʻyo tirik organizm. Uning ichida turli murakkab jarayonlar kechadi. Tuproqni yaxshi holatda tutib turish uchun uning barcha tashkil etuvchilarining almashinish jarayonlari tabiatini bilish zarur. Tuproqning sirtqi qatlamlarida turli xil organizmlarning koʻplab qoldiqlari mavjud. Ularning chirishi oqibatida gumus hosil boʻladi. Gumus miqdori esa tuproqning hosildorligini belgilab beradi. Oʻsimliklar tuproqdan zaruriy mineral moddalarni oladi. oʻsimliklar solib, chirigandan soʻng olingan elementlar yana tuproqqa qaytadi.

# Litosferaning tuzilishi va chegaralari

Atmosferaning quyi qatlami — troposfera, litosferaning ustki g'ovak qatlami, gidrosfera va biosferalarni o'z ichiga olgan hamda o'zaro ta'sir etib turadigan yaxlit qobiq **Yerning geografik qobig'i** deb ataladi. Geografik qobiqning yuqori va quyi chegarasini, uning qalinligini turli olimlar turlicha o'tkazishadi va belgilashadi. Ko'p olimlar geografik qobiqning yuqori chegarasini troposferaning yuqori qismidan o'tkazishadi va uning qalinligini 30-35 km deb hisoblashadi.



# Litosferaning tuzilishi va chegaralari



Aniqlanishicha, geografik qobiqning yuqori chegarasi ozon pardasiga, pastki chegarasi esa g'ovak jinslarining tag qismiga to'g'ri keladi. Ozon pardasi Yerdagi organizmlarni Quyoshning ultrabinafsha nurlaridan muhofaza qiladi. Geografik qobiqning birinchi xususiyati, uning tarkibiy qismlari — litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalar doimiy ravishda o'zaro aloqadorlikda bo'lishi va bir-biriga ta'sir etishidir; ikkinchi xususiyati, modda va energiya almashinish jarayonining bo'lib turishidir; uchinchi xususiyati, geografik qobiqda organik hayotning, jumladan, insoniyat jamiyatining mavjudligidir. Geografik qobiqning rivojlanishiga Yerning tashqi va ichki energiyalari ta'sir etadi. Geografik qobiqda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarning asosiy qismi


# *Tuproq qatlami va ahamiyati haqida tushuncha*



Tuproqning shunday bo'zilishiga, singdirilgan kationlar ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Asosan singdirish kompleksi dagi ikki, uch valentli ( $\text{Ca}_2^+$  va  $\text{Mg}_2^+$ ) kationlarning bir valentli ( $\text{Na}^+$ ,  $\text{N}^+$  va  $\text{NH}_4^+$ ) kationlar bilan almanishuvi bunga sabab bo'ladi. bir valentli natriy, ammoniy va vodorod struktura hosil qiluvchi kolloidlarni nam sharoitida peptizatsiyalab, struktura agregatlarni bo'zadi. Shuning uchun ham kimyoviy melioratsiyalash strukturasi saqlanib qolinishida muhim rol o'ynaydi. Strukturaning biologik yo'l bilan bo'zilishiga sabab, asosan aerob sharoitdagi mikroorganizmlarning hayot faoliyati bilan bog'liq..

# *Tuproqning ifloslanishi*

Hozir tuproqni ifloslantirayotgan zaharli moddalar insonlar uchungina emas, balki boshqa foydali jonivorlar uchun ham zaharliligi bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligida keng qo'llanilayotgan pestisid turlari tuproqlardagi bakteriyalarga ham salbiy ta'sir qilmoqda. Bu zaharli moddalar yuqori biologik faol moddalar bo'lganligi tufayli, tuproqning ostki qatlamlariga chuqur singib, sizot suvlarini ham zararlantirmoqda. Buning oqibatida o'simlik tanasida ularning ildiz sistemalari orqali to'planib, inson va hayvonlar uchun katta xavf tug'diradi. Ya'ni pestidsidlar biosidlar tabiatdagi jonivorlarning hammasiga zarar beruvchi omillarga aylanishi mumkin.



# *Insonning tuproqqa ijobiy va salbiy ta'siri*

Ijobiy ta'siriga tuproq hosildorligini oshirish, erlarning holatini yaxshilash, yashil o'simliklar ekish, ixotazorlar tashkil etish, tabiiy o'g'itlar berish va hokazolar kiradi.

Salbiy ta'siriga, shaharlar qurilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi, gidrotexnika tadbirlarining noto'g'ri yo'ga qo'yilishi, kimyoviy moddalardan me'yordan ortiq ishlatilishi, yaylovlarga chorva mollarini boqish, o'rmon va to'qaylarni qirqib yuborish va hokazolar ta'siri oqibatida erlar yaroqsiz holga keladi.

Insonning ta'siri ayniqsa sug'oriladigan erlarda kuchli bo'lib, sug'orib ekin ekayotganda ilg'or agrotexnika qoidalariga rioya qilinsa, (sug'orish qoida va me'yorlariga rioya qilish, erlarning meliorativ holatini yaxshilash va b.q.) tuproqning holati, fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari yaxshilanib, uning hosildorligi ortib boradi.

# *Tuproq eroziyasi*



[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

Tabiatda shamol va suv ta'sirida tuproqlarning emirilishi yoki eroziyasi kuzatiladi. Inson faoliyati natijasida tezlashgan suv va shamol eroziyasi amalga oshadi. Antropogen eroziya tuproq resurslaridan noto'g'ri foydalanishning oqibati bo'lib, uning asosiy sabablari o'rmon va to'qaylarni qirqib yuborish, yaylovlarda chorva mollarini boqish normasiga amal qilmaslik, dehqonchilik yuritishning noto'g'ri metodlaridan foydalanish va boshqalardir. Turli ma'lumotlarga ko'ra har kuni yer yuzida eroziya natijasida 3500 gektar unumdor tuproqli yerlar ishdan chiqadi. Suv eroziyasi ko'proq, tog' oldi va tog'li rayonlarda, shamol eroziyasi tekisliklarda kuzatiladi.

# *Tuproq eroziyasi*

Tuproqlarni eroziyadan ximoya qilish uchun ixota daraxtzorlari tashkil etiladi. Tuproqning suv singdirish va suv saqlash xususiyatlarini yaxshilash ham eroziyani oldini olishning muhim shartidir. Buning uchun tuproqlarga to'g'ri ishlov berish,navoz kompost va boshqa ugitalarnit uz vaqtida berib turish zarur. Bu tabirlar tuproqda gumus miqdorini oshishiga,tuproq strukturasi yaxshilanishiga olib keladi. Agrotexnik va sug'orish tadbirlarining to'g'ri olib borish ham eroziyani oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Tuproqning ifloslanishi. Tuproqning ifloslanishi odam va tirik organizmlar uchun muhim ahamiyatgga ega. Atmosferadan farq qilib,tuproq o'ziga tushgan turli ifloslovchilarni to'plash xususiyatiga ega tuproq mineral ugitalar va pestsidlarning nooqilona qo'llash natijasida ifloslanishi mumkin.



# *Mavzu yuzasidan savollar:*



- 1. Suv resurslari deb nimaga aytiladi?**
- 2. Suvning ifloslanishi va ifloslanish turlari qanday i zohlanadi ?**
- 3. Litosfera haqida tushuncha bering ?**
- 4. Litosferaning tuzilishi va chegaralari qanday tarb iy qismlardan iborat ?**
- 5. Tuproqning fizik va kimyoviy xossalarini aytib be ring ?**
- 6. Tuproq qatlami va ahamiyati haqida tushuncha b ering ?**
- 7. Tuproq korroziyasi nima ?**

A close-up photograph of a bouquet of light pink roses. The roses are the central focus, surrounded by small white baby's breath flowers and silver, curly ribbons. The background is dark and out of focus.

***E`tiboringiz uchun  
tashakkur***